

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

**RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA BO'LG'USI TARIX FANI
O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENTLIGIDA "TARIXIY
TAFAKKUR" TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISH.**

Tursunov Ahror Amadovich

*Qo'qon Davlat universiteti, Pedagogika kafedrasida 13.00.01-
Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi ixtisosligi
1-bosqich tayanch doktoranti.*

axrorjontursunov4@mail.com. Tel: +998905098656

Аннотация: В статье рассматривается роль образования в области исторического мышления в развитии профессиональной компетентности будущих учителей истории в условиях цифрового образования. Анализируются вопросы развития у студентов глубокого понимания истории, аналитического мышления, бережного отношения к наследию и умения управлять инновационными технологиями посредством технологий виртуальной и дополненной реальности. Системно рассматриваются компоненты исторического мышления и виды компетентности.

Ключевые слова: цифровое образование, историческое мышление, компетентность, технологии виртуальной и дополненной реальности, историческое сознание, инновационное обучение.

Annotation: The article discusses the role of "historical thinking" education in developing the professional competence of future history teachers in digital education. It analyzes the issues of developing students' deep understanding of history, analytical thinking, respect for heritage, and management of innovative technologies through VR and AR technologies. The components of historical thinking and types of competence are considered on a systematic basis.

Keywords: digital education, historical thinking, competence, VR, AR technologies, historical consciousness, innovative instruction.

Kirish: Bugungi kunda dars jarayoni faqat doskada ma'ruza o'qishlikdan iborat emas balki o'quvchini qiziqtirish, unga tarixni "his qilish" imkonini berish uchun VR, AR texnologiyalardan foydalangan holda interaktiv muhit yaratish bo'lg'usi tarix fani o'qituvchisining zaruriy kompetensiyasiga aylangan. Hozirgi zamonaviy ta'lim jarayonida bilimdon emas, balki bilimni amaliyotda qo'llay oladigan, muammolarga mustaqil yechim topa oladigan kompetentga ega bo'lan shaxsni shakllantirish asosiy

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

maqsadlardan biriga aylangan. Bu esa pedagogika fanida "kompetentlik" tushunchasining markaziy o'ringa chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Asosiy qism: Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki Bo'lajak tarix fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligida "tarixiy tafakkur" markaziy o'rinda turadi. Ushbu tafakkur quyidagi asosiy komponentlar orqali shakllanadi:

1. Tarixiy tafakkur va analitik yondashuv – Tarixiy tafakkur o'quvchida sabab-oqibat munosabatlarini tushunishga, voqealarning zamon va makondagi bog'liqligini anglashga xizmat qiladi. O'qituvchi tarixiy manbalarni tahlil qilish, hujjatli dalillarni solishtirish orqali tanqidiy va analitik fikrlashni shakllantiradi [1]

2. Tarixiy ong va madaniy merosga hurmat – Tarixiy ong – bu xalq, jamiyat va davlat tarixini anglash orqali shaxsiy va milliy o'zlikni shakllantirishdir. Tarix fani o'qituvchisi o'quvchilarga tarixni o'rganish orqali madaniy merosga hurmat bilan qarash, uni asrash, milliy qadriyatlarni anglash g'oyalarini singdiradi [2]

3. Innovatsion yondashuvlar – Raqamli texnologiyalar, xususan AR (kengaytirilgan reallik), VR (virtual reallik), 3D modellashtirish kabi vositalar tarixiy voqealarni vizual va hissiy tarzda ifodalash imkonini beradi. Bu esa o'quvchilar tafakkurini jonlantiradi, diqqatni kuchaytiradi, tarixni o'z ko'zi bilan "ko'rishga" undaydi [3]

4. Fuqarolik va ijtimoiy faollikni shakllantirish – Tarix fani orqali vatanparvarlik, mas'uliyat, jamiyat oldidagi burchni anglash, tarixiy tajribani hozirgi hayot bilan bog'lash ko'nikmalari o'rgatiladi. Bu esa o'quvchilarda ijtimoiy pozitsiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [4]

5. Interfaol metodlarni qo'llash – Tarixiy rolli o'yinlar, muammoli savollar, bahs-munozaralar orqali o'quvchilar faol ishtirok etadi. Bu esa ularning mustaqil fikrlash, tarixiy dalillarni tahlil qilish va shaxsiy xulosalarga kelish salohiyatini kuchaytiradi [5]

Tadqiqotlarimiz natijasida biz bo'lg'usi tarix fani o'qituvchilari raqamli ta'lim muhitida quyidagicha tarixiy tafakkur komponentlariga ega bo'lishini maqsadga muvofiq deb bildik.

O'rganishlarimiz bugungi raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak tarix fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish nafaqat bilim berish jarayoni, balki zamonaviy texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar, milliy va fuqarolik qadriyatlarini uyg'unlashtira oladigan ko'p qirrali pedagogik jarayon ekanligini anglatmoqda. Shu maqsadda yuqoridagi manbalar tahlili orqali bo'lajak tarix fani o'qituvchisining o'ziga xos kasbiy kompetentligini saralab oldik.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

Bo'lajak tarix fani o'qituvchisining o'ziga xos kasbiy kompetentligi tasnifi

№	Kompetentlik nomi	Tasnifi
1	Raqamli kompetentlik	Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, onlayn platformalar va undan samarali foydalanish. Onlayn muloqot madaniyati, ijtimoiy pozitsiyani shakllantirish
2	Didaktik raqamli kompetentlik	Tarix fanini o'qitishda raqamli resurslarni belgilash va moslashtirish, interaktiv metodikani qo'llash.
3	Kasbiy kompetentlik	O'zini doimiy rivojlantirish kasbiy va shaxsiy rivojlanish, yangi texnologiyalarni o'zlashtirish.
4	Kreativ va innovatsion kompetentlik	Yangi g'oyalar, kreativ metodlarni dars jarayoniga tatbiq etish.
5	Kommunikativ kompetentlik	O'quvchilar, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot olib boorish.
6	Texnik kompetentlik (TK)	VR/AR, virtual muzey, tarixiy video-animatsiyalar va interfaol resurslardan foydalanish
7	Pedagogik-kontent kompetentlik (TPACK)	Texnologiya, metodika va tarixiy mazmuni uyg'unlashtirib ta'lim jarayonini loyihalash
8	Tahliliy-interfaol kompetentlik	Raqamli ta'limda tarixiy manbalarni tahlil qilish, virtual muhokama tashkil etish
9	Axborot-estetik kompetentlik	Onlayn xavfsizlik, plagiatdan saqlanish, shaxsiy ma'lumotlar bilan ishlash madaniyati

Xulosa: Bo'lajak tarix fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini murakkab va ko'p qirrali jarayondir. U milliy zamonaviy texnologiyalarga tayanuvchi, shu bilan birga tarixiy tafakkur, analitik fikrlash, madaniy merosga sodiqlik va metodik ishlab chiqarishlar bilan uyg'unlashgan holda amalga oshiriladi. Raqamli ta'lim sharoitida bo'lg'usi tarix fani o'qituvchilari zamonaviy bilim va ko'nikmalarni egallashlari, ularni o'quv jarayoniga integratsiya qilish qobiliyatiga ega bo'lishlari hamda o'z pedagogik faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirib borishlari zarurdir.

Adabiyotlar ro'yhati:

- [1] А. Антонова, «Профессиональная компетененост учителя истории,» Молодой учёный, № 10, pp. 63-66, 2012.
- [2] «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 6-jild.,» в O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi., Toshkent, 2004, pp. 134-135.

**TALIM STRATEGIYASI: YUQORI MALAKALI BO'LAJAK PEDAGOG
KADRLAR TAYYORLASH ISTIQBOLLARI**
mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
21.10.2025

- [3] N. Chomsky, «Aspects of the Theory of Syntax,» MIT Press, Cambridge, 1965.
- [4] R.B Yarmatov, Bo'lajak tarix o'qituvchilarining o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini takomillashtirish. (monografiya), Toshkent: "Turon-iqbol", 2018.
- [5] UNESCO, «Incheon Declaration and Framework for Action,» в Education.2030, , 2015.

